



TA'LIM VA TARBIYANING UZVIY BOG'LIQLIGI

Nurulloeva Manija Qurbon qizi

Ramazonova Aziza Amonulla qizi

Toshova Shahlo Qurbonmurod qizi

Denov tadbirkorlik va pedagogika

instituti Pedagogika fakulteti

Boshlangich ta'lim yo'nalishi 3-bosqich talabasi

Tel: [+998\(88\) 8109707](tel:+998(88)8109707)

[+998\(88\)6936777](tel:+998(88)6936777)

E-mail: manijanurulloeva29@gmail.com

ANOTATSIYA: *Ushbu maqolani yozishdan maqsad, ta'lim bu bilim berish, malaka va ko'nikmalar hosil qilish jarayoni, kishini hayotga va mehnatga tayyorlashning asosiy vositasini ifodalash. Ta'lim tor ma'noda o'qitish tushunchasini anglatishi, lekin u faqat turli tipdagi o'quv yurtlarida o'qitish jarayonini emas, oila, ishlab chiqarish va boshqa sohalarda ma'lumot berish jarayonini ham bildirishi haqida yozilgan.*

Kalit suzlar: *Ta'lim, tarbiya, oila, malaka, shaxs, mohiyat, maqsad, metod*

АННОТАЦИЯ: *Целью написания данной статьи является показать, что образование – это процесс привития знаний, умений и навыков, а также основное средство подготовки человека к жизни и труду. Пишется, что под образованием понимается понятие обучения в узком смысле, но оно означает не только процесс обучения в различных типах учебных заведений, но и процесс распространения информации в семье, на производстве и в других сферах.*

Ключевые слова: *Образование, воспитание, семья, компетентность, личность, сущность, цель, метод.*

ABSTRACT: *The purpose of writing this article is to express that education is the process of imparting knowledge, skills and abilities, and the main means of*



preparing a person for life and work. It is written that education means the concept of teaching in a narrow sense, but it means not only the process of teaching in different types of educational institutions, but also the process of imparting information in the family, production and other areas.

Key words: *Education, upbringing, family, competence, personality, essence, goal, method*

Taraqqiyotning tamal toshi ham, mamlakatni qudratli, millatni buyuk qiladigan kuch ham ilm-fan, ta'lim va tarbiyadir. Har kim ta'lim olish huquqiga ega. Davlat bepul umumiy o'rta ta'lim va boshlang'ich professional ta'lim olishni kafolatlaydi. Davlat maktabgacha ta'lim va tarbiyani rivojlantiradi. Maktabgacha ta'lim va tarbiya, umumiy o'rta ta'lim davlat nazoratidadir. Davlat uzluksiz ta'lim tizimi, uning har xil turlari va shakllari, davlat va nodavlat ta'lim tashkilotlari rivojlantirilishini ta'minlaydi. Ta'lim tashkilotlarida alohida ta'lim ehtiyojlariga ega bo'lgan bolalar uchun inklyuziv ta'lim va tarbiya ta'minlanadi. Fuqarolar davlat ta'lim tashkilotlarida tanlov asosida davlat hisobidan oliy ma'lumot olishga haqli. Asosiy qism: Ta'lim – bilim berish, malaka va ko'nikmalar hosil qilish jarayoni, kishini hayotga va mehnatga tayyorlashning asosiy vositasi. Ta'lim jarayonida ma'lumot olinadi va tarbiya amalga oshiriladi. Ta'lim tor ma'noda o'qitish tushunchasini anglatadi, lekin u faqat turli tipdagi o'quv yurtlarida o'qitish jarayonini emas, oila, ishlab chiqarish va boshqa sohalarda ma'lumot berish jarayonini ham bildiradi. Darhaqiqat, Alloh taolo insoniyatni yer yuzini obod qilish uchun yaratgan. Demak, u o'zining vazifalarini ado etishi uchun har taraflama komil va yetuk bo'lishi kerak. Buning uchun esa insonda avvalo tarbiya ya'ni odob axloqni shakllantirish lozim, undan keyin ta'limga yo'naltirilsa albatta mehnat o'z samarasini beradi. Payg'ambarimiz Muhammad alayhis salom hadisi sharifda □Farzandlaringizni yaxshi ko'ringlar, odobini chiroyli qilinglar□- deb, boshqa bir hadislarida esa □Ilm o'rganish har bir muslim va muslimaga farzdir□- deb marhamat qilganlar.

Tarbiya □ shaxsda muayyan jismoniy, ruhiy, axloqiy ma'naviy sifatlarni shakllantirishga qaratilgan amaliy pedagogik jarayon; insonning jamiyatda yashashi uchun zarur bo'lgan xususiyatlarga ega bo'lishini ta'minlash yo'lida



ko'riladigan chora tadbirlar yigindisi. Tarbiya insonning insonligini ta'minlaydigan eng qadimiy va abadiy qadriyatdir. Tarbiyasiz alohida odam ham, kishilik jamiyati ham mavjud bo'la olmaydi. Chunki odam va jamiyatning mavjudligini ta'minlaydigan qadriyatlar tarbiya tufayligina bir avloddan boshqasiga o'tadi.

Ta'lim va tarbiyaning o'rtasida ochiq-oydin farq bor. Ta'lim, tarbiyaning bir juzi hisoblanadi. Tarbiya esa ta'limni o'z ichiga oladi. Demak, tarbiya o'z-o'zidan ma'lum bo'ladi-ki ta'limga nisbatan mukammal va keng qamrovlidir. Jumladan Abdulla Avloniy "Turkiy Guliston yoxud axloq" kitobida bunday keltiradi: "Alloh taolo insonlarni asl xilqatda iste'dod va qobiliyatli, yaxshi bilan yomonni, foyda bilan zararni, oq bilan qorani ajratadigan qilib yaratgan. Lekin insondagi bu qobiliyatni kamolga yetkazish tarbiya bilan bo'lur. Qush uyasida ko'rganini qilar". Mana shu hikmatli so'zlarni o'zi ham tarbiyani qanchalik muhimligini va farzandni jamiyatda komil shaxs bo'lib shakllanishida ota-ona hamda ustoz murabbiylarning vazifasini bayon qilmoqda. Tarbiyaning muhimligi haqida Imom G'azzoliy bunday deydi: "Bolalar ota-onalariga berilgan bir omonatdir. Bolaning qalbi har qanday naqshu tasvirdan xoli bir qimmatbaho gavhardir. U qanday naqsh solinsa, qabul qiladi, qayoqqa bukilsa, egiladi. Agar yaxshilikka o'rgatilsa, shu bilan o'sadi va dunyoyu oxiratda saodatga erishadi. Uning sa-vobiga ota-onasi ham, har bir muallimu ustozlari ham sherik bo'ladilar. Agar yomonlikka odatlantirilsa, hayvonlardek o'z holiga tashlab qo'yilsa, oxir-oqibat halok bo'ladi. Gunohi esa uning tarbiyasi uchun javobgar bo'lganlarning gardaniga tushadi". Agar ta'limni tarbiyadan ajratib qo'yilsa, ta'lim cho'loq bo'lib qoladi. Vaholanki tarbiya masalalariga e'tiborsiz qaralgan vaziyatda yuzaga keladigan ko'ngilsizliklar ham, u keltirib chiqaradigan zararli oqibatlar ham barchamizga juda yaxshi ma'lum. Ammo bugungi kunda aksariyat kishilarimizga ana shu hakikatni aytsangiz sizga: "Ko'ryapsiz-ku, osonmas, hayot tashvishlari, bolalarning yeb-ichishi, kiyim kechagi", "Ha endi o'zi omon bo'lsa, tarbiyasi bir gap bo'lar..." kabi moddiy muammolarni ro'kach qilishadi. Aslida, tarbiya "bir gap bo'ladigan" narsa emas. Uning uchun jon kuydirish shart. Mol dunyo kiyim kechakka hirs qo'yish dardidan forig' bo'lib, tarbiya bilan shug'ullanish kerak. Shuni unutmashimiz kerakki, yurt kelajagi,



vatanimiz taraqqiyoti va xalqimizning ertangi kuni qanday bo'lishi farzandlarimiz va yoshlarimizning bugun qanday ta'lim va tarbiya olishiga bog'liqdir. Shu sababli har qaysi ota-ona, ustoz va murabbiy har bir bola timsolida avvalo shaxsni ko'rishi zarur. Ana shu oddiy talabdan kelib chiqqan holda, o'nib-o'sib kelayotgan yoshlarni mustaqil va keng fikrlash qobiliyatiga ega bo'lgan, ongli yashaydigan komil insonlar etib voyaga yetkazish □ ta'lim-tarbiya sohasining asosiy maqsadi va vazifasi bo'lishi lozim, deb qabul qilishimiz kerak. Xulosa o'rnida shuni aytish kerakki, farzandlarimizni ilm-fan va ta'lim-tarbiya asosida voyaga yetkazish maqsadga muvofiq ekan, o'z o'rnida tarbiya esa ma'naviyat bilan chambarchas bog'liqdir. Zero, yoshlar kelajak egalari hisoblanadi. Yoshlarimiz ta'lim-tarbiyasida esa ma'naviy tarbiya katta ahamiyatga ega. Eng muhimi, farzandlarimizni sog'lom, komil inson qilib tarbiyalaylikki, ular o'z ota-bobolariga, tariximizga, Vatanimizga, ona tilimizga, o'z milliy qadriyatlarimizga, muqaddas dinimiz an'alariga sodiq bo'lgan..

Ta'lim va tarbiyaning uzviy bog'liqligi. Ta'lim va tarbiya — inson kamolotining eng muhim ikki asosiy yo'nalishidir. Ular bir-biri bilan chambarchas bog'liq bo'lib, biri ikkinchisiz to'liq natija bera olmaydi. Ta'lim bilim berishga xizmat qilsa, tarbiya insonni axloqan shakllantiradi va to'g'ri yo'lga boshlaydi. Ta'lim jarayonida o'quvchilar fanlarni o'rganadi, yangi bilim va ko'nikmalarga ega bo'ladi. Masalan, matematika, ona tili, informatika kabi fanlar orqali inson aqliy jihatdan rivojlanadi. Lekin faqat bilimning o'zi yetarli emas, uni to'g'ri qo'llash uchun tarbiya ham zarur. Tarbiya esa insonning xulqi, odobi, vijdoni va ma'naviyatini shakllantiradi. O'quvchi rostgo'ylik, mehnatsevarlik, hurmat, mas'uliyat kabi fazilatlarni o'rganadi. Bu fazilatlar uning jamiyatda to'g'ri yashashiga yordam beradi.

Ta'lim va tarbiya birgalikda olib borilganda, komil inson shakllanadi. Masalan, o'qituvchi dars berish jarayonida faqat bilim bermasdan, balki o'quvchilarni tartibli bo'lishga, bir-birini hurmat qilishga ham o'rgatadi. Bu esa ta'lim va tarbiyaning uzviy bog'liqligini ko'rsatadi. Agar ta'lim tarbiyadan ajralib qolsa, bilimli lekin axloqi sust insonlar yetishib chiqishi mumkin. Aksincha, tarbiya



bilimsiz bo'lsa, u ham yetarli samara bermaydi. Shuning uchun ular doimo birga olib borilishi kerak. Aytganda, ta'lim va tarbiya insonni har tomonlama rivojlantiruvchi ikki muhim omildir. Ularning uzviy bog'liqligi jamiyat taraqqiyoti va barkamol avlod tarbiyasida katta ahamiyatga ega.

Ta'lim va tarbiya inson shaxsini shakllantirishda eng muhim va bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lgan jarayonlardir. Ularni bir-biridan ajratib bo'lmaydi, chunki ta'lim bilim bersa, tarbiya o'sha bilimdan to'g'ri foydalanishni o'rgatadi. Shu sababli har bir jamiyat rivoji ta'lim va tarbiyaning uyg'unligiga bog'liq hisoblanadi. Ta'lim — bu o'quvchilarga ilm-fan asoslarini o'rgatish, ularning aqliy qobiliyatini rivojlantirish jarayonidir. Ta'lim orqali inson dunyoqarashi kengayadi, fikrlash qobiliyati oshadi va yangi bilimlar egallanadi. Masalan, matematika, tarix, biologiya, informatika kabi fanlar o'quvchining intellektual rivojlanishiga xizmat qiladi. Tarbiya esa insonning ma'naviy va axloqiy jihatdan shakllanishidir. U insonni odobli, vijdonli, mehnatsevar, halol va mas'uliyatli bo'lishga o'rgatadi. Tarbiya oilada, maktabda va jamiyatda shakllanadi. Masalan, kattalarga hurmat, do'stlik, rostgo'ylik va intizom kabi fazilatlar tarbiya orqali rivojlanadi.

Ta'lim va tarbiya bir-biri bilan chambarchas bog'liq. Maktabda o'qituvchi faqat bilim berib qolmay, balki o'quvchilarga to'g'ri xulq-atvorni ham o'rgatadi. Masalan, darsda intizomga rioya qilish, bir-birini hurmat qilish, topshiriqlarni mas'uliyat bilan bajarish — bularning barchasi ta'lim jarayonida tarbiya ham berilayotganini ko'rsatadi. Agar ta'lim tarbiyadan ajratib qo'yilsa, bilimli, lekin axloqi sust insonlar shakllanishi mumkin. Bunday insonlar jamiyatga foyda keltirish o'rniga zarar yetkazishi ham mumkin. Aksincha, faqat tarbiya bo'lib, ta'lim bo'lmasa, inson yetarli bilimga ega bo'lmaydi va zamonaviy hayot talablariga javob bera olmaydi. Shuning uchun ham ta'lim va tarbiya doimo birgalikda olib borilishi kerak. Ularning uyg'unligi natijasida har tomonlama rivojlangan, bilimli va axloqan yetuk shaxslar yetishib chiqadi.

Xulosa qilib aytganda, ta'lim va tarbiya — inson kamolotining ikki asosiy ustunidir. Ularning uzviy bog'liqligi jamiyatning taraqqiyoti, farovonligi va kelajak avlodning barkamol bo'lib voyaga yetishida muhim ahamiyatga ega.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. *O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 16-yanvar 2019-yildagi □ Ta`lim sifatini nazorat qilish tizimini takomillashtirish bo`yicha qo`shimcha choratadbirlar to`g`risida □ PQ-4119-sonli qarori.*
2. *Belova S.N., Shamova T.I., Ilyina I.V. Maktab ta'limi natijalarini baholashning zamonaviy vositalari. - M.: Rossiya Pedagogika Jamiyati, 2007.*
3. *Kalnei V.A., Shishov S.E. □ O`qituvchi-shogird □ tizimida ta`lim sifatini monitoring qilish texnologiyasi. O`qituvchi uchun uslubiy qo'llanma. Rossiya Pedagogika Jamiyati. M.: - 2009 yil.*
4. *Farberman B., Musina R., Jumaboyeva F. Oliy o`quv yurtlarida o`qitishning zamonaviy usullari. -T., 2002.*